

**TURLI EKISH VA CHILPISH MUDDATLARIGA BOG'LIQ HOLDA  
DEFOLIANTLARNING G'O'ZA BARGLARI TO'KILISHIGA  
TA'SIRI**

*Tursunova Sayyoraxon Yorqinjon qizi*

*E-mail: abubakireldor01@gmail.com*

*Farg'ona politexnika instituti*

*+998907811113*

*Annotatsiya. Paxta eng muhim qishloq xo'jaligi ekinlaridan biri bo'lib, ko'pgina mamlakatlarning to'qimachilik sanoati va iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. G'o'za yetishtirish texnologiyasining muhim bosqichi - barg tushishi hosilning sifati va miqdoriga ta'sir qiladi. Barglarning tushishini nazorat qilish usullaridan biri defoliantlardan foydalanish - barglarning erta tushishiga yordam beruvchi kimyoviy moddalardir. Defoliantlar o'simliklardagi barglarning yo'qolishi jarayonini tezlashtirish uchun ishlatiladigan kimyoviy moddalardir. G'o'zada ulardan foydalanish hosilni yig'ish sharoitini yaxshilaydi, chigit namligini pasaytiradi va sifatini yaxshilaydi. Biroq, defoliantlarning samaradorligi ekish va hosilni yig'ish vaqtiga qarab farq qilishi mumkin.*

*Kalit so'zlar: G'o'za, barg, defoliant, ekish muddati, tuproq, o'simliklar, tajriba, g'o'za barglari, tabiiy to'kilish, chigit, natija.*

Ularning ta'kidlashicha, g'o'za barglarining to'kilishi murakkab jarayon bo'lib, bu barglarda moddalar almashinuvining o'zgarishi natijasida sodir bo'ladi. Ya'ni, bunda barglarda parchalovchi jarayonlar sintezlovchi jarayonlardan ustun kela boshlashi, murakkab organik moddalarning solishtirma og'irligi kamayishi, barglarning assimilyatsion xususiyati susayishi, xloroplast qarishi, nafas olishning pasayishi, oksidlovchi-tiklovchi sistemalar faolligining o'zgarishi, barg to'qimalari namligining kamayishi, ma'dan tuzlar miqdorining oshishi sodir bo'ladi. Barg

plastinkasi rangining o'zgarishi esa, uglevod va azotli moddalarning parchalanishi, nafas olish jarayoning buzilishi, auksinni kamayishi va etilenning ortishi hisobiga amalga oshadigan murakkab fiziologik jarayonlar natijasida sodir bo'ladi (Zokirov 1968, Imomaliyev 1969, Umarov, Kutyanin 2000).

Akademik A.Imomaliyevning (1969) ma'lum qilishicha, g'o'za barglarining to'kilishi murakkab fiziologik jarayon bo'lib, g'o'za barglari tabiiy to'kilishidan oldin barg bandida ajratuvchi qatlamning hosil bo'lishi tashqi omillar ta'siriga o'simlikning javob reaksiyasidir. Bundan tashqari tashqi omillarning o'zigina katta rol o'ynamaydi, bunda asosan o'simlikning morfologik holati, barglarning yoshi, barg soni va barglarning tabiiy to'kilish xususiyati muhim ahamiyatga ega. Barglarning tabiiy to'kilishi havo va tuprok harorati hamda namligiga bog'liq bo'lib, g'o'za barglarining to'kilishining kechikishiga asosiy sabab barg plastinkasidan suvning tezlik bilan parchalanishidir.

F.Teshayevning (2015) ta'kidlashicha, ko'saklar ochilish davrida g'o'za tupida barglarning ko'p bo'lishi paxta dalasini shabadalanib turishiga xalal berib, havoning yerga yaqin turgan qatlamida namlikni ortib ketishiga sabab bo'ladi. Natijada ko'saklar dimiqib, ochilishi kechikadi, hatto ayrimlarida ko'sakni chiritadigan bakteriyalar, zamburug'lar ko'payib, ko'saklarning chirish holatlari ko'proq kuzatiladi. Odatda defoliantlar qanchalik samarador ekanligini aniqlashda asosan ularning g'o'za barglarining to'kilishi va ko'saklarining ochilishiga ta'sirini o'rganish muhimdir. Olib borilgan izlanishlarda Buxoro-8, Sulton va S-8290 g'o'za navlarida roq.

O'rganilayotgan UzDYEf defoliantining g'o'za barglari to'kilishiga ta'siri aniqlanib, bu bo'yicha defoliatsiyadan so'ng 7 va 14 kun o'tgandan so'ng maxsus fenologik kuzatuvlar olib borildi. Kuzatuvlardan olingan ma'lumotlar 4.6.1-4.6.2-jadvallarda keltirilgan. Farg'ona viloyati sharoitida olib borilgan tadqiqotlarda Buxoro-8 go'za navining chigiti 10-aprelda ekilib, ko'saklari 45-50% ochilgan muddatda defoliatsiya o'tkazilishi rejalashtirilgan (1-muddat) variantida UzDYEf defolianti 8,0 l/ga me'yorda qo'llanilganda defoliatsiyadan 7 kundan so'ng barglarning to'kilishi 53,6% ni, qolgan 13,4% barglar g'o'za tupida yashil holatda

turgan bo'lsa, defoliatsiyadan 14 kun o'tgach barglarning to'kilishi 87,4%) ni, yashil barglar esa 1,6% ni tashkil qildi. G'o'za chigiti 15-20 aprel kunlarida ekilib parvarishlanganda O'zDYeF defolianti 7,5 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda defoliatsiyadan 7 kundan so'ng mos ravishda g'o'za tupida 13,1-12,9% qurigan barglar, 13,9-14,6% yarim qurigan va 57,4-58,7% to'kilgan barglarni tashkil etgan bo'lsa, defoliatsiyadan 14 kundan so'ng 88,1-87,3% g'o'za barglari to'kilib, defoliant ta'sirida 6,1-6,6% barglar qurigan, 4,1 -4,3% yarim qurigan holda g'o'za tupida saqlanib qolganligi kuzatildi. Chigit ekish 25-30 aprel kunlarida amalga oshirilib O'zDYeF defolianti 7,0l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda defoliatsiyadan 7 kun o'tgach g'o'za tupida 12,5- 12,2% yashil barglar, 23,5-15,0% qurigan, 10,2-19,2% yarim qurigan barglar saqlanib, qolgan 53,8-53,6% barglar to'kilib ketgan bo'lsa, defoliatsiyadan 14 kundan so'ng to'kilgan barglar soni 84,4-83,5% ni tashkil etib, g'o'za tupida 3,1- 3,9% qurigan va 10,9-10,4% yarim qurigan barglar saqlanib qolganligi ma'lum bo'ldi. Chigit 5-may kuni ekilib O'zDYeF defolianti 6,5 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda defoliatsiyadan 7 kundan so'ng g'o'za tupida 12% yashil, 31,4% qurigan va yarim qurigan barglar saqlanib, 56,5% barglar to'kilganligi, defoliatsiyadan 14 kun o'tgach esa to'kilgan barglar soni 81,8% ni, qurigan barglar soni 12,7% ni va yarim quriganlari 3,2% ni tashkil etganligi qayd etildi. Sulton g'o'za navining chigiti 10-aprelda ekilib, g'o'za ko'saklari 45-50% ochilgan muddatda defoliatsiya o'tkazilishi rejalashtirilgan 1-muddatda UzDYeF defoliantini 7,0 l/ga me'yorda qo'llanilganda defoliatsiyadan 7 kundan so'ng barglarning to'kilishi 60,8% ni, yashil barglar 11,2% ni, qurigan barglar 16,7% ni, yarim qurigan barglar 11,3% ni tashkil etgan bo'lsa, defoliatsiyadan 14 kun o'tgach barglarning to'kilishi 89,6% ni, yashil barglar esa 1,1% ni tashkil qildi. G'o'za chigiti 15-20 aprel kunlarida ekilib parvarishlanganda O'zDYeF defolianti 6,5 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda defoliatsiyadan 7 kundan so'ng mos ravishda g'o'za tupida 9,9-10,5% qurigan barglar, 13,3-13,9% yarim qurigan va 64,9-65,3% to'kilgan barglarni tashkil etgan bo'lsa, defoliatsiyadan 14 kundan so'ng 89,9-90,5% g'o'za barglari to'kilib, defoliant ta'sirida 4,9-4,3% barglar qurigan, 4,4-4,6% yarim qurigan holda g'o'za tupida

saqlanib qolganligi kuzatildi. Chigit ekish 25-30 aprel kunlarida amalga oshirilib UzDYEf defolianti 1/ga me'yorda qo'llanilgan variantda defoliatsiyadan 7 kun o'tgach g'o'za tupida 9,7-11,2% yashil barglar, 18,9-17,6% qurigan, 10,9-15,7% yarim qurigan barglar saqlanib, qolgan 60,5-55,5% barglar to'kilib ketgan bo'lsa, defoliatsiyadan 14 kundan so'ng to'kilgan barglar soni 91,3-89,6% ni tashkil etib, g'o'za tupida 3,2- 3,1% qurigan va 5,1-6,0% yarim qurigan barglar saqlanib qolganligi ma'lum bo'ldi. Chigit 5-may kuni ekilib O'zDYEf defolianti 6,0 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda defoliatsiyadan 7 kundan so'ng g'o'za tupida 12,3% yashil, 33,1%o qurigan va yarim qurigan barglar saqlanib, 54,6% barglar to'kilganligi, defoliatsiyadan 14 kun o'tgach esa to'kilgan barglar soni 85,9%o ni, qurigan barglar soni 9,4% ni va yarim quriganlari 2,9% ni tashkil etganligi qayd etildi. Shuningdek, erta pishar S-8290 g'o'za navining chigiti 10-aprelda ekilib, go'za ko'saklari 45-50% ochilgan muddatda defoliatsiya o'tkazilishi rejalashtirilgan maydonda O'zDYEf defoliantini 6,5 l/ga me'yorda qo'llanilganda defoliatsiyadan 7 kundan so'ng barglarning to'kilishi 63,4% ni, yashil barglar 10,5% ni, qurigan barglar 15,6% ni, yarim qurigan barglar 10,5% ni tashkil etgan bo'lsa, defoliatsiyadan 14 kun o'tgach barglarning to'kilishi 90,6% ni, yashil barglar esa 0,9% bo'lganligi ma'lum bo'ldi. G'o'za chigiti 15-20 aprel kunlarida ekilib parvarishlanganda O'zDYEf defolianta mos ravishda 6,5-6,0 l/ga me'yorlarda qo'llanilgan variantlarda defoliatsiyadan 7 kundan so'ng go'za tupida 8,3-9,9% qurigan barglar, 12,7-10,6% yarim qurigan va 67,5- 69,7% to'kilgan barglarni tashkil etgan bo'lsa, defoliatsiyadan 14 kundan so'ng 91,6-92,8% g'o'za barglari to'kilib, defoliant ta'sirida 5,4-5,5% barglar qurigan, 2,5-1,4% yarim qurigan holda g'o'za tupida saqlanib qolganligi kuzatildi. Chigit ekish 25-30 aprel kunlarida amalga oshirilib O'zDYEf defolianta 6,0 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda defoliatsiyadan 7 kun o'tgach g'o'za tupida 8,6-10,7% yashil barglar, 17,2-17,0% qurigan, 10,3-18,2% yarim qurigan barglar saqlanib, qolgan 63,9-54,1% barglar to'kilib ketgan bo'lsa, defoliatsiyadan 14 kundan so'ng to'kilgan barglar soni 94,4-90,1% ni tashkil etib, g'o'za tupida 3,8- 3,7% qurigan va 1,6-5,1% yarim qurigan barglar saqlanib qolganligi ma'lum bo'ldi. Chigit 5-may kuni ekilib O'zDYEf

defolianti 5,5 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda defoliatsiyadan 7 kundan so'ng g'o'za tupida 11,7% yashil, 36,1% qurigan va yarim qurigan barglar saqlanib, 56,2% barglar to'kilganligi, defoliatsiyadan 14 kun o'tgach esa to'kilgan barglar soni 86,8% ni, qurigan barglar soni 9,8% ni va yarim quriganlari 1,8% ni tashkil etganligi qayd etildi. S-8290 g'o'za navi Buxoro-8 va Sulton g'o'za navlariga nisbatan defoliantlarga ta'sirchanligi yuqori bo'lib, barglar to'kilishi ham shunga monand bo'ldi

### **Xulosa**

Buxoro-8 g'o'za navida defoliatsiyadan 14 kun o'tgach eng ko'p barglar to'kilishi chigit 15-aprelda ekilib, 13-14 hosil shoxida chilpish o'tkazilgan variantda (88,1%) kuzatilgan bo'lsa, Sulton g'o'za navida chigit 25-aprelda ekilib 12-13 xosil shoxida chilpish o'tkazilganda barglar to'kilishi 91,3% ni tashkil etdi va Buxoro-8 navidan 3,2% ga ko'proq barglar to'kilganligi aniqlandi. Shuningdek, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek S-8290 g'o'za navida boshqa navlarga nisbatan barglar to'kilishi ko'proq bo'lib, bu navda xam eng ko'p barglar to'kilishi chigit 25-aprelda ekilib, 12-13 hosil shoxida chilpish o'tkazilgan variantda 94,4% ni tashkil etganligi kuzatildi.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR**

1. Toshboltayev M. G'o'za tuplariga shakl beruvchi mashinaning nazariyasi va hisobi. -Toshkent: "Fan va texnologiya", 2016. -5 b.
2. Toshboltayev M. G'o'za tuplariga shakl berishning afzalliklari//O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, 1994; №1-3- B.55.
3. Xoliqov B., Xasanova F., Abdualimov Sh. Avgust-hosilga hosil qo'shish oyi.//O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, 2012; №8- 4 b.
4. Shayxov E.T., Normuxamedov N, Shleyxer A.I., Azizov Sh.G'., Lev V.T., Abdurashidova L.X. Paxtachilik. -Toshkent: Mehnat, 1990. -B. 238-295.
5. Yuzbashyan O.Sh., Xamrayev F.X. Kmiyoviy chilpishning afzalliklari va g'o'za hosildorligiga ta'siri 2001. B. 172-173.
6. Yasheva Ye, Gabdurashidov I. G'o'zani yotib qolishga chekankaning ta'siri// O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, 1987; №7- B. 13.